

**SCIENCE**  
**PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar  
fanlarning dolzarb  
muammolari**

Son 11 Jild 4

**2024**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

*№ 11 (4) - 2024*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2024**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### *07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

Саидов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ходим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

### *08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалоҳонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### *09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулув Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

### *10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

#### 12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Аҳмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Эргашев Икром Абдурасулович – юридик фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

#### 13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Ҳашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

#### 19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Васида Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Караматдиновна – психология фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

#### *22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пулатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабобевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

#### *23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР*

Назаров Насриддин Атақулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

---

### **ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

---

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари**” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

#### **Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: [scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

#### **Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).

**MUNDARIJA**

**07.00.00 – TARIX FANLARI**

<i>Лутфиллаев Ҳамидилло Муродиллаевич</i> “ЖАВОҲИР АТ-ТАФСИР ЛИ ТУҲФАТ АЛ-АМИР” АСАРИНИНГ МАЗМУНИ ВА ТАРКИБИЙ ҚИСМЛАРИ ҲАҚИДА .....	12-17
<i>Эгамбергенов Ҳайтбой Ҳамидулло ўғли</i> ТОШ ДАВРИ АҲОЛИ МИГРАЦИЯЛАРИ (ЎРТА ОСИЁНИНГ ЖАНУБИЙ, ЖАНУБИЙ-ҒАРБИЙ ВА ҚУЙИ АМУДАРЁ ҲУДУДЛАРИ МИҚЁСИДА) .....	18-25
<i>Esonov Ziyodbek Yuldashevich</i> ҚО‘ҚОН ХОНЛАРИ СУЛОЛАСИНИНГ ГЕНЕОЛОГИК ТАҲЛИЛИ .....	26-31
<i>Mamatqulov Bekzod</i> О‘ЗБЕКИСТОНДА XX-АСРНИНГ 20-40-ЙИЛЛАРИДА СANOAT TARMOQLARINING RIVOJLANISHI VA KADRLAR TARKIBINI SHAKLLANTIRISH JARAYONLARI .....	32-38
<i>Asadova Ra’no Baymanovna</i> О‘ЗБЕК- HIND MUNOSABATLARINING YANGI BOSQICHGA KO‘TARILISHI: HAMKORLIK ISTIQBOLLARI .....	39-42
<i>Saidova Raxima</i> О‘ЗБЕКИСТОН ВА ИТАЛИЯ MUNOSABATLARINING ME‘YORIY-HUQUQIY MANBALARI ...	43-48
<i>Ortiqov Yosin Abdulboqiyevich, Ergasheva Ra’no Muzaffarbek qizi</i> AFROSIYOB ARXEOLIGIK YODGORLIGINING O‘RGANILISH TARIXI .....	49-55
<i>Iriskulov Bekzod Jaxongirovich</i> TURKISTON GENERAL-GUBERNATORLIGI BYUDJETINING SARFLANISHIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR .....	56-60
<i>Mirsoatova Sayyora Turg’unovna</i> QOYATOSH SURATLARIDA IBTIDOIIY DAVR IQTISODIIY HAYOTINING AKS ETISHI .....	61-66
<i>Лухмонов Шахзод Сайфиддин ўғли</i> ВЛИЯНИЕ ДЕНЕЖНОЙ ЭМИССИИ В 1918-1920 ГОДАХ НА СОЦИАЛЬНО- ЭКОНОМИЧЕСКУЮ ЖИЗНЬ НАРОДОВ ТАССР .....	67-71
<i>Axmedov Bekzod</i> SOVET HOKIMIYATI TOMONIDAN O‘ZBEKISTONDA QORAKO‘LCHILIKNI RIVOJLANTIRISH TADBIRLARI.....	72-75
<i>Mamatov Jasurbek Qodirqul o‘g‘li</i> NAMANGAN VILOYATI ZIYORATGOHLARINING AHOLINING IJTIMOIIY HAYOTIDAGI O‘RNI (UYCHI TUMANI DEVONA BUVA ZIYORATGOHI MISOLIDA) .....	76-80
<i>Saidaxmatov Sharifbek Toshpo‘latovich</i> SURXONDARYO VILOYATI SANOATINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASINING ASOSIIY YO‘NALISHLARI .....	81-88

*Ибрагимов Рахмон Зиёдуллаевич*  
ТОШКЕНТ ВОҲАСИ ПАЛЕОМЕТАЛЛ ДАВРИ ЖАМИЯТИ ТАРАҚҚИЁТИДА ТАБИИЙ  
РЕСУРСЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ ..... 89-93

*Akrorov Botir Bakhodirovich*  
ДОГОВОРНО-ПРАВОВАЯ БАЗА СОТРУДНИЧЕСТВА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН И ИРАНА  
В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ ..... 94-99

### **08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI**

*Tursunov Bekmuxammad Omonovich*  
IQTISODIYOTDAGI TARKIBIY O'ZGARISHLAR SHAROITIDA SANOAT KORXONALARI  
RAQOBATBARDOSHLIGINI TA'MINLASH MEKANIZMI TAKOMILLASHTIRISH ..... 100-108

*Muxitdinova Kamola Alisherovna*  
«OLMALIQ KON-METALLURGIYA KOMBINATI» AJDA ISHLAB CHIQRILADIGAN  
MAHSULOTLARINING SANOAT KORXONALARIDA QO'LLANISHI ..... 109-115

*Madraximov Qaxramon Egamberganovich*  
INNOVATSION FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH ORQALI IQTISODIY BARQARORLIKKA  
ERISHISH YO'LLARI: XORAZM VILOYATI MISOLIDA..... 116-125

*Кетманов Авазбек Маликович*  
КИЧИК БИЗНЕС МОЛИЯВИЙ РЕСУРСЛАРИ САМАРАДОРЛИГИ ОМИЛЛАРИ ВА УЛАРНИНГ  
ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ ..... 126-134

*Xolmirzayev Abdulxamid Xapizovich*  
KAMBAG'ALLIKKA QARSHI KURASHISHNING OMILLARI..... 135-142

*Bahriddinov Jahongirbek Ravshanjon ogli*  
MARKET MECHANISMS, METHODS OF PRICE FORMATION IN THE SYSTEM OF MARKETING  
OF GOODS AND SERVICES ..... 143-152

*Ilhamova Zarnigor Po'latjon qizi*  
MINTAQA TURIZMINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI MARKETING TIZIMINI  
TASNIFI ..... 153-160

*Sharipov Komil*  
MINTAQAVIY KAMBAG'ALLIKNI KAMAYTIRISHDAGI KICHIK BIZNESNING ROLI ..... 161-170

*Rajabov Navruzbek Azimjonovich*  
MAISHIY XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI RIVOJLANISHI VA KAMBAG'ALLIKNI  
QISQARTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI ..... 171-179

*Mirzaeva Shirin Nodirovna*  
SUPPORT AND DEVELOPMENT OF WOMEN'S ENTREPRENEURSHIP IN  
UZBEKISTAN..... 180-187

*Pardayev Rasulbek Islomovich*  
TURIZM XIZMATLARI SIFATINI BAHOLASHNING USULLARI VA ULARNING  
TAHLILI ..... 188-196

*Bahodirov Shohruh Bahodir o'g'li*  
SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI BOSHQARISH  
XUSUSIYATLARI ..... 197-202

<i>Рахимов Бахромжон Ибрахимович</i> ВНЕДРЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ МЕТОДОВ ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ВОДНЫХ РЕСУРСОВ .....	203-209
<i>Zakirova Gulnora Mirzalievna, Madaminov Abdulaziz Anvarjon o'g'li</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA EKSPORT VA IMPORT SALOHİYATI (NAMANGAN VILOYATI TAHLILIDA).....	210-216
<i>Hasanov Ilkhom Isakovich</i> IMPROVING THE FINANCING MECHANISM OF THE SCIENTIFIC SUPPLY SYSTEM IN THE AGRICULTURE OF UZBEKISTAN.....	217-221
<i>Ibragimova Nilufar Ziyadullayevna</i> CHAKANA SAVDO KORXONALARIDA XIZMATLAR KO'RSATISHNING XUSUSIYATLARI .....	222-227
<i>Maxmudov Jasurbek Ergashevich</i> INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI MOLIYAVIY JIHADAN QO'LLAB-QUVVATLASH TAHLILI .....	228-233
<i>Ravshanov Nodirjon Begalievich</i> TA'LIM XIZMATLARI BOZORIDA OLIY TA'LIM MUASSASALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING AHAMIYATI .....	234-243
<b>09.00.00 – FALSAFA FANLARI</b>	
<i>Murtozayev Shahobiddin Baxriddinovich</i> SHIHOIDDIN SUHRAVARDIY FALSAFIY QARASHLARIGA IJTIMOYIY-SIYOSIY VAZIYATLARNING TA'SIRI .....	244-248
<i>Qutlimuratov Sardorbek Rustamovich</i> XORAZM JADIDLARI MA'NAVIY MEROSINING YANGI O'ZBEKISTONDA YOSHLARINI VATANPARVARLIK VA BAG'RIKENGLIK RUHIDA TARBIYALASHDAGI AHAMIYATI.....	249-254
<i>Saburov Jaloliddin</i> XVIII-ASR OXIRI VA XIX-ASR BOSHLARIDA BUXORO AMIRLIGIDA ILM-FAN VA MADANIY HAYOT RIVOJI .....	255-260
<i>Jabborov Ikromjon Jumaniyozovich</i> NAJMIDDIN KUBRO TA'LIMOTIDA "KOMIL INSON" TARBIYASI VA UNING AXLOQIY VA MA'NAVIY YUKSALISHGA OID G'OYALARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....	261-265
<i>Saidkulov Nuriddin Akramkulovich</i> FORMATION OF PERSPECTIVES REGARDING SOCIETY'S STABILITY .....	266-271
<i>Adilov Zafar Yunusovich</i> MAHMUD AZ-ZAMAHSHARIY QARASHLARIDA SUV VA SHIFOBAXSH MEVALAR MASALASI .....	272-277
<i>Yuldashev Farrux Abdurakhmanovich</i> ON THE QUESTION OF THE UNIQUE ROLE OF THE PRINCIPLES OF HUMANITY AND PATRIOTISM IN THE DEVELOPMENT AND STRENGTHENING OF THE FUTURE OF THE YOUNG GENERATION .....	278-282
<i>Ganiyev Baxodirjon Sodiqjonovich</i> TADBIRKORLIK MADANIYATINING SENSUALISTIK VA AKSIOLOGIK XUSUSIYATLARINING IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLILI .....	283-287

**11.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI**

<i>Baxronova Dilrabo</i> PROTOTURKIYLARNING AMERIKA QIT'ASIGA KO'CHISHI: LEKSIK PARALLELLIZM VA ETIMOLOGIK-SEMANTIK TADQIQ .....	288-295
<i>Daliyeva Madina</i> DETERMINANTS OF COGNITIVE MODELING OF POLYSEMY OF LINGUISTIC TERMS IN ENGLISH, UZBEK, AND RUSSIAN LANGUAGES .....	296-300
<i>Paluanova Khalifa</i> STRATEGIES FOR ENHANCING PRAGMATIC COMPETENCE IN SECOND LANGUAGE ACQUISITION (SLA) THROUGH EFFECTIVE APPROACHES .....	301-306
<i>Ravshanov Maxmud</i> СЕМАНТИКА ГЛАГОЛОВ В «ДИВАНИ ЛУГАТ-ИТ ТУРК» МАХМУДА КАШГАРСКОГО .....	307-311
<i>Bekbergenova Gulaim Aijarikovna</i> SEMANTIC CLASSIFICATION OF ENGLISH AND KARAKALPAK ANTHROPOCENTRIC PROVERBS .....	312-318
<i>Normamatov Farrux Komiljon o'g'li</i> MURAKKAB USLUBDAGI ASARLAR XUSUSIYATLARI VA UNDA FORMALIZM YONDASHUVI .....	319-322
<i>Gulamova Dilobar Imamkulovna</i> ADABIYOT DARSLIKLARDA EVFEMIZMLARNING QO'LLANILISHI VA TAHLILI .....	323-326
<i>Xolmuxamedov Baxtiyor</i> TERS LUG'ATLARNING ASOSIY XUSUSIYATI VA ULARNI TUZISH METODIKASI .....	327-334
<i>Chorieva Iroda Kurbonboevna</i> KASALLIK NOMLARI VA BELGILARI KELITIRILGAN INGLIZ VA O'ZBEK MAQOLLARINING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI .....	335-339
<i>Ganiyeva Orzigul Hayriddinovna</i> XX ASR AMERIKA REALISTIK QISSACHILIGIDA POETIK KONSTRUKSIYA: SHAKL VA MAZMUN MASALASI .....	340-345
<i>Rasulova Kamola</i> ПОНЯТИЕ ТРАНСФОРМАЦИИ. ВИДЫ АВТОРСКИХ ПРЕОБРАЗОВАНИЙ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ .....	346-353
<i>Омонов Турғунбой</i> “СУҒУРТА” ТЕРМИНИНИНГ ЛИНГВИСТИК ТАЪРИФИ .....	354-358
<i>Хакбердиева Сайёра Фармоновна</i> ЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ ОБЪЕКТИВИЗАЦИЯ ФРЕЙМА «МАТЬ» И «ОТЕЦ» В РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ .....	359-364
<i>Xolmirzayev Baxtiyor Mirzamahmudovich</i> IJTIMOIY-SIYOSIY ASAR TARJIMASINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....	365-370
<i>Gubaydullin Artur Faridovich</i> CHALLENGES OF TRANSLATION IN TERRY PRATCHETT'S "GOOD OMENS" .....	371-376
<i>Abdullaeva Sevara Makhsudaliyevna</i> EMOTIVE INTENSIFIERS OF ENGLISH AND RUSSIAN LANGUAGES .....	377-381

*Baymuradova Gulbahar Chari Qizi*

SURXONDARYO VILOYATI FITOTOPONIMLARINING STRUKTURGRAMMATIK

TAHLILI ..... 382-385

*Yuldasheva Nigora Bahodirovna*

INGLIZ VA O'ZBEK PAREMIYALARINI O'RGANISHNING AKSIOLOGIK JIHATLARI ..... 386-390

*Quljanova To'lg'anoy Shodiyor qizi*

ABDUVALI QUTBIDDIN SHE'RIYATIDA POETIK OBRAZLAR TAHLILI ..... 391-396

**12.00.00 – YURIDIK FANLAR***Ruzmetov Xayruлла*FUQAROLARNING ЎЗИНИ ЎЗИ БОШҚАРИШ ОРГАНЛАРИ МАНСАБДОР ШАХСЛАРИНИНГ  
КОНСТИТУЦИЯВИЙ-ҲУҚУҚИЙ ЖАВОБГАРЛИГИ ..... 397-402*Ачилова Лилия Илхомовна*ТУРИСТИК ХИЗМАТЛАР КЎРСАТИШ БЎЙИЧА ФУҚАРОЛИК-ҲУҚУҚИЙ  
МУНОСАБАТЛАРНИ ТАРТИБГА СОЛИШНИНГ УНИФИКАЦИЯСИ ЧЕГАРАЛАРИ  
РАҚАМЛАШТИРИШ ШАРОИТИДА ..... 403-410*Abdubannayev Umidjon*АХВОРОТГА ВО'ЛГАН ИНСОН HUQUQLARINI TA'MINLASHNING  
RIVOJLANISH BOSQICHLARI ..... 411-421*Халиқулов Комолиддин Носирович*ХОРИЖИЙ ДАВЛАТ СУДЛАРИНИНГ ҚАРОРЛАРИНИ ТАН ОЛИШ ВА ИЖРО ЭТИШДА  
ДАВЛАТ СУВЕРЕНИТЕТИ МАСАЛАЛАРИ ..... 422-427*Тўраев Жавоҳир Усмон ўғли*ХОДИМЛАР МЕҲНАТ ҲУҚУҚЛАРИГА РИОЯ ҚИЛИНИШИ БЎЙИЧА ДАВЛАТ НАЗОРАТИ ВА  
ТЕКШИРУВИ ТУШУНЧАСИГА ОИД НАЗАРИЙ ҚАРАШЛАР ..... 428-433*Элмурзаев Билолиддин Нурмон ўғли*ТЕРГОВ ҲАРАКАТЛАРИНИ АМАЛГА ОШИРИШДА ТЕРГОВЧИНИНГ ПРОЦЕССУАЛ  
МУСТАҚИЛЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШ ..... 434-439*Djumaniyazova Dilfuza Kamalovna, Shayakubov Shomansur Shakabilovich*IJTIMOIY HAVF GURUHIGA KIRUVCHI YOSHLAR O'RTASIDA HUQUQBUZARLIKLARGA  
QARSHI KURASHISH VO'YICHA HORIJIY TAJRIBA ..... 440-446*Алиев Асилбек Кадирович*КРИМИНОЛОГИЧЕСКИЕ (СОЦИАЛЬНЫЕ) ПРЕДПОСЫЛКИ И КОРНИ РАСПРОСТРАНЕНИЯ  
АЗАРТНЫХ ИГР СРЕДИ НАСЕЛЕНИЯ ..... 447-451*Нодирахон Абдурахманова*РЕГУЛИРОВАНИЕ ФИНТЕХА И КРИПТОВАЛЮТ: ОСНОВНЫЕ ВЫЗОВЫ И ПРАВОВЫЕ  
АСПЕКТЫ ..... 452-462*Ғайбуллаев Сохибжон Ғайбуллаевич*

РЕПО БИТИМЛАР – ТАЪМИНЛОВЧИ БИТИМ СИФАТИДА УМУМИЙ ТАВСИФ ..... 463-469

**13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI***Xusanova Mohira*OLIY O'QUV YURTLARIDA TALABALARNI BAHOLASH SHAKLINI  
TAKOMILLASHTIRISH ..... 470-479

<i>Берикбаев Алишер Аликулович</i> ТАСВИРИЙ САНЪАТ ФАНЛАРИНИ ЎҚИТИШДА ИЛҒОР ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯСИДАН ФОЙДАЛАНИШ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ .....	480-483
<i>Yusupova Shoxista Alimjanovna</i> TALABALARNING TASVIRIY SAN'AT MASHG'ULOTLARIDA IJODIY QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYASI .....	484-489
<i>Yakubova Nafisa Odilyanovna</i> CHIZMACHILIK DARSLARIDA TALABALARNI IJODIY-KREATIV FIKRLASHGA O'RGATISH .....	490-494
<i>Musirmanov Shohboz Usmon o'g'li</i> TURIZM SOHASIDA KADRLAR TAYYORLASHDA AMALIYOT VA NAZARIYANING PEDAGOGIK UYG'UNLIGI .....	495-500
<i>Suvankulov Umid Ilxom o'g'li</i> MALAKA OSHIRISH JARAYONIDA PEDAGOGLARNING DISKURSIV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI .....	501-505
<i>Ibragimov A'lamjon Amrilloevich</i> O'QITUVCHILARNI UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISHGA KOGNITIVFUNKSIONAL YONDASHUV .....	506-518
<i>Jo'rayeva Feruza Baxtiyor qizi, Mavlonov Shaxzod Shahobiddin o'g'li</i> TA'LIMDA KOMMUNIKATIV INNOVATSION VOSITALAR VA ULARNING IMKONIYATLARI .....	519-524
<i>Siddiqova Shahnoza Ahmedovna</i> SCIENCE XALQARO BAHOLASH TADQIQOTLARINING O'ZBEKISTONDA BIOLOGIYA O'QITUVCHILARINING TABIIY FANLAR SAVODXONLIGINI SHAKLLANTIRISHGA TA'SIRI .....	525-529
<i>Xoliqov Nasriddin Abdikarimovich</i> MILLIY IQTISODIYOT RIVOJLANISHINING SHARTI SIFATIDA TA'LIM, FAN VA BIZNESNING O'ZARO ALOQALARI MAZMUNI .....	530-534
<i>Javliyeva Shahnoza Bahodirovna</i> TA'LIM SIFATIGA YO'NALTIRILGAN O'QUV MATERIALLARINI YARATISH MODELINI ..... 535-539	535-539
<i>Jumaboev Nabi Pardaboevich</i> TA'LIM SIFATIGA YO'NALTIRILGAN O'QUV MATERIALLARINI YARATISH MODELINI ..... 540-545	540-545
<i>Kayumov Erkin Kazakbayevich</i> THE IMPORTANCE OF FINE ARTS IN SHAPING STUDENTS' PERCEPTION AND CREATIVITY .....	546-550
<i>Khojamqulov Rasulbek Kurban ugli</i> THE NEED TO DEVELOP COMPETENCY OF FUTURE ENGINEERS USING COMPUTER GRAPHICS .....	551-555
<i>Latipova Gavhar Shavkat kizi</i> TARIX YO'NALISHI TINGLOVCHILARI UCHUN KREATIV SALOHİYATNI RIVOJLANTIRISH DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA .....	556-564
<i>Ernazarov G'olibjon Ne'matovich</i> ATROF- MUXITNING YUKORI XARORATIDA MUSHAK FAOLIYATI .....	565-568

**Received:** 31 October 2024  
**Accepted:** 5 November 2024  
**Published:** 15 November 2024

*Article / Original Paper*

## **LINGUOCULTURAL FEATURES OF ENGLISH AND UZBEK PROVERBS WITH DISEASE NAMES AND SYMPTOMS**

**Chorieva Iroda Kurbanboevna**

Teacher of Denau Institute of Entrepreneurship and Pedagogy

E-mail: [iroda.chorieva@inbox.ru](mailto:iroda.chorieva@inbox.ru)

**Abstract.** This scientific article is dedicated to an in-depth analysis of the linguistic and cultural characteristics expressed through the names and symptoms of diseases in English and Uzbek proverbs. In these proverbs, diseases and their symptoms are interpreted not only as medical concepts but also as notions with profound symbolic and cultural meaning. The study explores how the selected proverbs reflect the people's perceptions of health, healing, difficulties, and human values through the names and symptoms of diseases. The article highlights the intrinsic connection between language and culture, analyzing how each culture's attitude towards health and illness is reflected in their cultural values. The manifestation of folk culture and life philosophy through the names and symptoms of diseases serves as the primary focus of this research. The results of the study illustrate the similarities and, at the same time, the differences in the concepts of health and illness as expressed through proverbs in both English and Uzbek languages.

**Keywords:** names of diseases, symptoms of diseases, proverbs, linguistic analysis, linguoculturology, comparative analysis, health, culture, metaphorical meaning.

## **KASALLIK NOMLARI VA BELGILARI KELTIRILGAN INGLIZ VA O'ZBEK MAQOLLARINING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI**

**Chorieva Iroda Kurbonboevna**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu ilmiy maqola ingliz va o'zbek xalq maqollarida kasallik nomlari va belgilari orqali ifodalangan lingvomadaniy xususiyatlarni chuqur tahlil qilishga bag'ishlangan. Maqollarda kasallik va uning alomatlarini faqat tibbiy tushunchalar sifatida emas, balki chuqur ramziy va madaniy ma'noga ega bo'lgan tushunchalar sifatida talqin qilinadi. Ushbu ishda tanlangan maqollardagi kasallik nomlari va belgilari orqali xalqning sog'liq, shifo, qiyinchilik va insoniy qadriyatlar haqida qanday tasavvurlarga ega ekanligi o'rganiladi. Maqolada til va madaniyatning uzviy bog'liqligi yoritilib, har ikki xalqning sog'liq va kasallikka bo'lgan munosabati ularning madaniy qadriyatlari orqali tahlil qilinadi. Kasallik nomlari va belgilari orqali xalq madaniyati va hayot falsafasining namoyon bo'lishi tadqiqotning asosiy obyekti sifatida qaraladi. Tadqiqot natijalari ingliz va o'zbek tillaridagi maqollar orqali sog'liq va kasallik tushunchalarining qanchalik o'xshash va ayni vaqtda farqli ekanligini ko'rsatib beradi.

**Kalit so'zlar:** kasallik nomlari, kasallik simptomlari, maqollar, lingvistik tahlil, lingvomadaniyat, qiyosiy tahlil, sog'liq, madaniyat, metaforik ma'no.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I11Y2024N49>

**Kirish.** Maqollar xalq og'zaki ijodining yorqin namunalarini bo'lib, har bir xalqning madaniyati, urf-odatlarini va dunyoqarashini o'zida mujassam etgan ma'naviy boylikdir. Ular insoniyatning ko'p asrlik tajribasi va hayotiy kuzatuvlarini aks ettiradi. Xalq maqollari turli xil mavzularda, jumladan, sog'liq va kasallik bilan bog'liq masalalarni ham qamrab oladi. Sog'liq va kasallik inson hayotining muhim jihatlari bo'lgani sababli, bu mavzular turli tillarda keng tarqalgan va xalq ijodida o'z ifodasini topgan. Ayniqsa, kasalliklar, ularning nomlari va belgilari, maqollarda nafaqat tibbiy, balki ramziy va madaniy ma'no kasb etadi.

Har bir xalqning tili va madaniyati uning sog'liq va kasallikni qanday talqin qilishida ham o'z aksini topadi. Masalan, ingliz tilidagi maqollarda kasalliklar va sog'liq ko'pincha oldini olish, parvarishlash va sog'lom turmush tarzi bilan bog'liq bo'ladi, bu esa ingliz jamiyatining sog'liqni saqlashga bo'lgan e'tiborini ko'rsatadi. Shu bilan birga, o'zbek tilidagi maqollarda esa kasallik va shifo ko'pincha hayotiy sinovlar, azob-uqubatlar va taqdir bilan bog'liq bo'ladi. Bu o'zbek xalqining hayotdagi qiyinchiliklarni matonat bilan yengib o'tishga qaratilgan dunyoqarashini aks ettiradi.

Kasallik va uning belgilarining til vositasida ifodalanishi chuqur lingvistik va madaniy ildizlarga ega. Ba'zi maqollarda kasallik real tibbiy holat sifatida ifodalangan bo'lsa, boshqa maqollarda u ramziy ma'noda qo'llanilib, insonning ruhiy holati, jamiyatdagi o'rni yoki boshqa ma'nolar bilan bog'lanadi.

Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi kasallik nomlari va belgilari keltirilgan maqollarning lingvistik va madaniy xususiyatlari tahlil qilinadi. Qiyosiy tahlil yordamida har ikki tildagi kasallik va sog'liq haqidagi tasavvurlar, ularning lingvomadaniy jihatlari o'rganiladi. Bu tahlil orqali kasallikning nafaqat jismoniy, balki ramziy va madaniy talqinlari ochib beriladi, bu esa har ikkala til va madaniyatning sog'liq, kasallik va ularning belgilariga bo'lgan munosabatini yanada chuqurroq anglashga imkon beradi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Agar biz maqollarning uzoq tarixini, ularning tarkibida ko'plab tibbiy terminlarning mavjudligini va umuman olganda, sog'liqni targ'ib qiluvchi xalq ijodining juda xilma-xil misollarini inobatga olsak, barcha xalqlarning tibbiy savodxonligi qadim zamonlardan beri mavjud bo'lgan. Ingliz maqollarini to'plash va tahlil qilish biroz ertaroq boshlanganiga qaramay, XX asrning oxiri va XXI asrning boshlarida xalq ijodiga bo'lgan e'tibor oshdi. Ular orasida Martin H.Manserning "The facts on file dictionary of Proverbs" (Maqollar lug'ati faktlari) kitobi o'quvchilar va tadqiqotchilar uchun yaxshi qo'llanma bo'ldi. Muallif asosan kalit so'zlarni (ko'proq otlar va fe'llarga oid) alifbo tartibida joylashtirib, har bir so'z uchun maqollarni keltirgan. Maqollar mazmunidan tashqari, ularning kelib chiqishi va dastlab qaysi manbalardan olinganligi, shuningdek, xuddi shu ma'noni ifodalovchi asosiy variantlar ham ko'rsatilgan:

**love and a cough cannot be hid** It is impossible to conceal the fact that you are in love with somebody: *It is said that love and a cough cannot be hid, but they managed to keep their relationship secret for several months.* Of Latin origin, the proverb was first recorded in English in 1573 in J. Sandforde's *Garden of Pleasure* (1573): "Foure things cannot be kept close, Loue, the cough, fyre, and sorrowe."

Variant of this proverb: love and smoke cannot be hidden. [4]

O'zbek xalq maqollarini o'rganish asosan XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlangan bo'lib, ko'plab olimlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan. Shuning uchun ular yaratgan asarlardan bugungi kunda ham foydalanilmoqda. Jumladan, T.Mirzayev va B.Sarimsoqov tahriri

ostidagi ikki jilddan iborat “O‘zbek xalq maqollari” to‘plami folklorshunoslar, etnograflar, adabiyotshunoslar, shuningdek, xalq og‘zaki ijodiga qiziquvchi keng kitobxonlar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, unda 3000 ta yaqin maqol bor. Bu qo‘llanmada, chunki har bir maqol da keltirilgan.

T.Mirzayev, A.Musoqulov va B.Sarimsoqovlar tomonidan tuzilgan “O‘zbek xalq maqollari” to‘plamida maqollarga mavzu nuqtayi nazaridan yondashilib, alohida guruhlarga ajratilganligi ko‘plab foydalanuvchilarda qiziqish uyg‘otdi. [7]

Ingliz va o‘zbek tillarida paremiologik birliklar, ayniqsa, maqollar ko‘p o‘rganilgan. Turli mavzulardagi maqollar bilan bir qatorda salomatlikka oid maqollar ham o‘rganilgan, ammo tibbiy terminlarga ega maqollarga alohida e‘tibor qaratilmagan.

### **Muhokama va natijalar.**

**Kasallik nomlari bilan bog‘liq maqollar.** Ingliz va o‘zbek maqollarida kasallik nomlari ko‘pincha jismoniy va ruhiy holatlarni aks ettiradi, shuningdek, kasalliklarning inson hayoti va taqdiriga ta‘sirini ko‘rsatadi.

Quyidagi o‘zbek maqoli – *“Ichga yutgan dard kishini sil qilar”* [8] insonning ichida yig‘ilib qolgan, ifoda qilinmagan dard yoki qayg‘u oxir-oqibat jiddiy kasalliklarga, xususan, sil kasalligiga olib kelishi mumkinligini bildiradi. Bu maqol orqali odamlar ruhiy yoki hissiy og‘irliklarni ichga yutish, ularni boshqalar bilan bo‘lishmaslik salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkinligi ifodalanadi. Maqolning ma‘nosi shuki, insonning ruhiy azoblari, o‘z vaqtida yechilmagan hissiy muammolar tanaviy kasalliklarga, jiddiy sog‘liq muammolariga sabab bo‘lishi mumkin.

Bundan tashqari, bu maqol insonlarga o‘z dardlarini ichda saqlamay, ularga davo topish yoki muammolarni muhokama qilish kerakligini maslahat beradi. Shu bilan birga, ruhiy va jismoniy salomatlik o‘zaro bog‘liq ekanligi ta‘kidlanadi.

Ingliz tilidagi *“A dry cough is the trumpeter of death”* [4] (*Quruq yo‘tal – o‘limning karnaychisi*) maqoli kasallikning jiddiy alomatlarini, ayniqsa, o‘lim bilan bog‘liq og‘ir ahvolni tasvirlashda ishlatiladi. Bu maqol kasallikning quruq yo‘tal kabi kichik alomatlarini beparvolik bilan qarash yomon oqibatlarga olib kelishi mumkinligini ta‘kidlaydi. Quruq yo‘tal bu yerda *“o‘limning xabarchisi”* sifatida talqin qilinadi, ya‘ni bu alomat insonning sog‘lig‘ining xavf ostida ekanligini bildiruvchi ogohlantirishdir. Ushbu maqolda quruq yo‘tal og‘ir kasalliklar yoki o‘limga olib kelishi mumkin bo‘lgan jiddiy kasalliklarning boshlanishini ifodalaydi.

**Kasallik belgilari bilan bog‘liq maqollar.** O‘zbek xalqi orasida keng tarqalgan maqol *“Kasalni yashirsang, Isitmasi oshkor qilar”* [7] insonning muammolarni yoki kasalliklarni yashirishga urinishi natijasida ularning yanada jiddiy oqibatlarga olib kelishi mumkinligini ifodalaydi. Bu maqolning asosiy ma‘nosi shundaki, inson salomatligida yoki hayotida paydo bo‘lgan muammolarni yashirish o‘rniga, ularni o‘z vaqtida hal qilish kerak. Chunki muammolar yoki kasalliklar e‘tiborsiz qoldirilsa, vaqt o‘tgan sari yanada kattalashib, og‘ir va halokatli oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Metaforik ma‘noda bu maqol faqat kasalliklar haqida emas, balki turli hayotiy masalalarda ham ishlatiladi. Masalan, inson jiddiy muammolarni yoki muammoli vaziyatlarni yashirishga harakat qilsa, oxir-oqibat bu holat yomon oqibatlar bilan fosh bo‘ladi.

Ingliz tilidagi *“Feed a cold, starve a fever”* [4] maqoli kasallik belgilarini davolashda o‘ziga xos yondashuvni ko‘rsatadi. Bu maqol tabiatning o‘zi taqdim etgan davolash usullariga murojaat qilishni, ya‘ni shamollash paytida tana ehtiyojlarini o‘zgartirish zarurligini o‘rgatadi.

Bu inglizcha maqolda sovuqda tana oziqqa muhtojligini, lekin isitmada esa tanani oziqlantirmaslikni tavsiya qiladi. Shunday qilib, bu maqol kasallik belgilariga qaratilgan an'anaviy davolash usullarini o'rgatadi.

**Metaforik ma'nolar.** Ingliz va o'zbek maqollarida kasallik belgilarining metaforik ma'nolari ko'p uchraydi. Masalan, "**Dard – mehmon**" [8] degan maqolda ma'nosiga ko'ra, dard yoki kasallik hayotda vaqtincha yuz beradigan holat sifatida tasvirlanadi. "**Mehmon**" so'zi bu yerda kasallikni vaqtinchalik, uzoq qolmaydigan va kelib-ketadigan bir holat sifatida ifodalaydi. Maqolning asosiy g'oyasi shundan iboratki, dard doimiy emas, u vaqtincha keladi va o'z vaqtida ketadi. Bu insonlarni kasallik yoki qiyinchiliklar vaqtida sabrli bo'lishga, ularni o'tib ketadigan holat deb qabul qilishga undaydi. Unda asosiy metafora "**dard**"ning "**mehmon**" sifatida talqin qilinishidir. Mehmon – bu uzoq vaqt qolmaydigan, bir muddat kelib ketadigan insonni anglatadi, shuning uchun kasallik ham bu kontekstda vaqtinchalik bir holat sifatida qabul qilinadi. Bu metafora kasallikni yengilroq qabul qilish, uni hayotning ajralmas bir qismi sifatida tushunishga yordam beradi.

Ingliz xalqi orasida "**A crown is no cure for the headache**" [4] maqoli juda mashhur bo'lib, u shuni anglatadiki, hatto yuqori mavqe, boylik yoki hokimiyatga ega bo'lish ham ba'zi muammolarni hal qilolmaydi. Bu yerda "**crown**" hokimiyat yoki shon-shuhratni, "**headache**" esa hayotdagi qiyinchiliklar yoki muammolarni anglatadi. Maqol shuni ta'kidlaydiki, moddiy boylik yoki rasmiy unvonlar ham insonning shaxsiy yoki ruhiy muammolarini yo'q qilishga yetarli emas.

Bu yerda "**crown**" – metaforik tarzda hokimiyat, shon-shuhrat va boylikni ifodalasa, "**headache**" – bu yerda haqiqiy bosh og'rig'ini emas, balki insonni qiynaydigan tashvishlar, muammolar va stresslarni anglatadi.

Umuman olganda, bu maqol shon-shuhrat yoki boylikka ega bo'lish inson hayotidagi barcha muammolarni hal qilmaydi, ba'zi muammolarni hal qilish uchun boshqa yondashuvlar va echimlar kerak bo'lishini anglatadi.

Bu qiyosiy tahlil ko'rsatib turibdiki, kasallik nomlari va belgilarining metaforik ma'nolari ikki tilda turli madaniy xususiyatlarni aks ettiradi. O'zbek maqollarida kasallik qiyinchilik va sinov sifatida ko'rilsa, ingliz madaniyatida kasallik ogohlantiruvchi va himoya choralarini ko'rishga undovchi vosita sifatida talqin qilinadi.

**Xulosa.** Ingliz va o'zbek tillaridagi kasallik nomlari va belgilari keltirilgan maqollar turli lingvistik shakllarda ifodalanadi, ammo ular orasidagi umumiy mazmun-mohiyat diqqatga sazovor. Har ikki madaniyatda kasalliklar haqida aytilgan maqollar inson hayoti, sog'liq, va tabobatning ahamiyatini yoritadi. Lingvistik jihatdan bu maqollarda foydalanilgan leksik birikmalar va grammatik strukturalar farqlansa ham, ularning asosiy g'oyalari ko'pincha o'xshash bo'ladi. Misol uchun, ingliz va o'zbek maqollarida kasallik nomlari ko'pincha dardning jismoniy yoki ruhiy ifodasini anglatadi va sog'liqni tiklashda profilaktikaning muhimligi ta'kidlanadi.

Maqollardagi madaniy o'ziga xosliklar har ikki til va madaniyatda sog'liq, kasallik va ularni davolash bo'yicha turlicha yondashuvlarni ko'rsatadi. Ingliz tilidagi maqollarda ilmiy asoslangan tibbiyot va profilaktika yetakchi o'rinda tursa, o'zbek tilidagi maqollarda kasalliklar insonning taqdiri, xalq tabobati va tabiblarning ahamiyati bilan bog'lanadi.

Shunday qilib, tahlillar kasallik nomlari va belgilarining lingvistik xususiyatlari orqali bu maqollar har ikki madaniyatning sog'liqni saqlashga bo'lgan qarashlarini ifodalashda qanday

rol o'ynashini ko'rsatadi. Lingvistik farqlar mavjud bo'lsa-da, mazmun-mohiyat jihatidan o'xshashliklar kasalliklar va sog'liqni saqlash masalalariga e'tibor qaratilganligini aks ettiradi. Bu holat madaniy o'zaro tushunishni oshiradi va kasalliklar bilan bog'liq umumiy tajribalarning ifodasi sifatida ham xizmat qiladi.

#### **Адабиётлар/Литература/References:**

1. Chorjeva Iroda Kurbonboevna. (2023). TRANSLATION PROBLEMS AND THEMATIC VARIETIES OF THE ENGLISH AND UZBEK PROVERBS WITH THE CONCEPT "ILL". Neo Scientific Peer Reviewed Journal, 8, 51-56.
2. Jennifer Speake. The Oxford Dictionary of Proverbs: Fifth edition. – USA.: Oxford University Press, 2007.
3. Karamatova K.M., Karamatov H.S. Proverbs/Мақоллар/Пословицы. – Toshkent: Mehnat, 2000.
4. Martin H. Manser. The facts on file dictionary of Proverbs: Second edition. – New York: Facts on File An imprint of Infobase publishing, 2002.
5. Mohammed Attia. Dictionary of Common English Proverbs. 2004.
6. Smith, J. (2021). The Role of Proverbs in Folk Medicine: A Comparative Study of English and Uzbek Proverbs. Journal of Cross-Cultural Studies, 25(3), 345-360.
7. Mirzayev T., Sarimsoqov B. O'zbek xalq maqollari: II-tom. – T.: O'zbekiston SSR "Fan" nashriyoti, 1988.
8. Mirzayev T., Sarimsoqov B. O'zbek xalq maqollari: I-tom. – T.: O'zbekiston SSR "Fan" nashriyoti, 1987.

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ 11 (4) – 2024*

### АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

#### ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари**” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).